

«SHARQ-U G'ARB ADABIYOTIDA GUMANIZM: NAVOIY VA PUSHKIN»

mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy
konferensiya materiallari

Proceedings of the international
scientific-theoretical conference titled

«HUMANISM IN EASTERN AND WESTERN LITERATURE: NAVOI AND PUSHKIN»



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI
O'ZBEK FILOLOGIYASI FAKULTETI
JAHON ADABIYOTI VA QIYOSIY ADABIYOTSHUNOSLIK KAFEDRASI

**“SHARQ-U G'ARB
ADABIYOTIDA GUMANIZM:
NAVOIY VA PUSHKIN”**

mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari

2024-yil, 25-aprel

MINISTRY OF HIGHER EDUCATION, SCIENCE AND
INNOVATIONS OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN
ALISHER NAVAI TASHKENT STATE UNIVERSITY
OF UZBEK LANGUAGE AND LITERATURE
FACULTY OF UZBEK PHILOLOGY
DEPARTMENT OF WORLD LITERATURE AND COMPARATIVE LITERATURE

*Proceedings of the international scientific-theoretical
conference titled*

**“HUMANISM IN EASTERN AND
WESTERN LITERATURE:
NAVOI AND PUSHKIN”**

April 25, 2024

Toshkent
“Nurafshon business”
2024

UO'K 845.711.05

KBK 133.585.3

“Sharq-u G‘arb adabiyotida gumanizm: Navoiy va Pushkin” mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari. – Toshkent: Nurafshon business, 2024. – 840-b.

ISBN 978-9910-8871-6-1

Mas’ul muharrir:

Shuhrat Sirojiddinov,

filologiya fanlari doktori, akademik

Tahrir hay’ati:

Shuhrat Sirojiddinov (O‘zbekiston), Münevver Tekcan (Turkiya), Uzoq Jo‘raqulov (O‘zbekiston), Agnieska Vojta (Germaniya), Sulton Normamatov (O‘zbekiston), Rukhsana Iftikhar (Pokiston), Dilmurod Quronov (O‘zbekiston), Almaz Ulviy (Ozarbayjon), Suvon Meli (O‘zbekiston), Sergey Nikonorov (Rossiya), Akibatxan Ismanova (Qirg‘iziston), Makbal Orazbek (Qozog‘iston), Nozliya Normurodova (O‘zbekiston), Aleksey Pilev (Rossiya), Nurboy Jabborov (O‘zbekiston), Shafiqa Yorqin (Afg‘oniston), Amir Ne‘mati Lima‘i (Eron), Nafas Shodmonov (O‘zbekiston), Dilmurod Quronov (O‘zbekiston), Odiraxon Jamoliddinova (O‘zbekiston), Gulnoz Xalliyeva (O‘zbekiston), Dilnavoz Yusupova (O‘zbekiston).

“Sharq-u G‘arb adabiyotida gumanizm: Navoiy va Pushkin” mavzusida o‘tkazilayotgan xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari komparativistikaning sof nazariy va amaliy muammolariga doir tadqiqotlardan tarkib topgan. Shunga ko‘ra to‘plam “Navoiy va Pushkin ijodida gumanizm konsepsiyasi”, “Navoiy va Pushkin ijodining global mohiyati”, “Yosh tadqiqotchilar Navoiy va Pushkin haqida” nomli uch qismga ajratilgan. Navoiy va Pushkin asarlariga xos spetsifika, semantika, struktura, lingvopoetik, lingvopsixologik xossalari qiyosiy tahlil etilgan. Ayni paytda, ikki ulug‘ mutafakkirning jahon xalqlari badiiy tafakkuriga ta’siri, global ahamiyatiga oid nazariy tadqiqotlar o‘rin olgan.

Ilmiy to‘plam adabiyot nazariyasi, adabiy tanqid, adabiyot tarixi, qiyosiy adabiyotshunoslik, tarjima nazariyasi, tarjimashunoslik bilan shug‘ullanayotgan doktorant, tayanch doktorantlar; magistrant va bakalavriyat bosqichi talabalari, shuningdek, badiiy adabiyot masalalari bilan qiziquvchilar uchun mo‘ljallangan.

To‘plam Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti Ilmiy-texnik kengashining 2024-yil 3-apreldagi yig‘ilishi qaroriga asosan nashrga tavsiya etilgan.

Mualliflar qarashlari tahririyat nuqtayi nazaridan farqlanishi mumkin.

© “Nurafshon business”, 2024.

UO'K 845.711.05

KBK 133.585.3

"Humanism in East-West Literature: Navoi and Pushkin". Proceedings of international scientific-theoretical conference. – Tashkent: Nurafshon business, 2024. – 840 p.

ISBN 978-9910-8871-6-1

Editor-in-Chief:

Shukhrat Sirojiddinov,

Doctor of philological sciences, Academic

Editors:

Shukhrat Sirojiddinov (Uzbekistan), Münevver Tekcan (Turkey), Uzoq Jurakulov (Uzbekistan), Agnieska Vojta (Germany), Almaz Ulviy (Azerbaijan), Suvon Meli (Uzbekistan), Nurboy Jabborov (Uzbekistan), Shafiqa Yorqin (Afghanistan), Nafas Shodmonov (Uzbekistan), Rakymjan Turysbek (Kazakhstan), Dilmurod Kuronov (Uzbekistan), Odinakhon Jamoliddinova (Uzbekistan), Feruza Ikromkhanova (Uzbekistan), Gulnoz Khalliyeva (Uzbekistan), Dilnavoz Yusupova (Uzbekistan).

This compilation presents findings from an international scientific-theoretical conference centered around "Humanism in East-West Literature: Navoi and Pushkin" It covers a range of theoretical and practical issues in comparative studies. The collection is structured into three main sections: "Exploring the Concept of Humanism in Navoi and Pushkin's Works," "Examining the Global Significance of Navoi and Pushkin's Literary Contributions," and "Insights from Up-and-Coming Scholars on Navoi and Pushkin." The collection analyzes the specificities, semantics, structures, linguopoetic, and linguopsychological features of Navoi's and Pushkin's works in comparison. Additionally, the conference also discussed theoretical inquiries into the worldwide impact of these two influential thinkers on artistic thought across cultures.

This Conference proceedings are crafted for graduate, undergraduate, and doctoral students specializing in literary theory, criticism, history of literature, comparative literature, translation theory, and literary studies. It's also suitable for anyone intrigued by literary issues.

The collection was recommended for publication by the decision of the meeting of the Scientific and Technical Board of the Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navai on April 3, 2024.

The perspectives of the authors may vary from those of the editors.

© "Nurafshon business", 2024.

32.	<i>Мустафо БАЙЭШАНОВ.</i> ИСЛАМСКИЙ ВОСТОК В ТВОРЧЕСТВЕ Г.ДЕРЖАВИНА	319
33.	<i>Latofat TASHMUXAMEDOVA.</i> ADABIYOT VA INSON TAFAKKURI	344
34.	<i>Elmurod NASRULLAYEV.</i> NAVOIYGA DOIR TARIXIY MANBALARNING O'RGANILISHI	353
35.	<i>Sa'dulla MATYAKUPOV.</i> NAVOIY VA PUSHKIN LIRIKASIDA DIALOGIK TALQIN	367
36.	<i>Zuhra AZILOVA.</i> NAVOIY ASARLARINING QORAQALPOQCHA TARJIMALARI	375
37.	<i>Nargiza G'ULOMOVA.</i> ALISHER NAVOIY VA PUSHKIN IJODINING TA'LIMIY, IJTIMOYIY AHAMIYATI	380
38.	<i>Hayot LATIPOV, Nasiba NOROVA.</i> NAVOIY VA PUSHKIN: BADIY G'OYA VA OBRAZ	385
39.	<i>Ulug'bek KO'CHIMOV.</i> FANTASTIK ASARLARDA GUMANIZM KONSEPSIYASI	392

II-SHO'BA
NAVOIY VA PUSHKIN IJODINING
GLOBAL MOHIYATI

40.	<i>Amir NEMATI LIMA'I.</i> AMIR ALISHIR NAVAI AS A FOLLOWER OF KHAWAJA NIZAM AL-MULK TUSI AND KHAWAJA RASHID AD-DIN FADLULLAH HAMADANI (ANALYSIS, INTERPRETATION AND COMPARISON)	400
41.	<i>Гулноз ХАЛЛИЕВА, Оксана ВОДНЕВА.</i> "ИСПОВЕДЬ" КАК ЛИТЕРАТУРНЫЙ ЖАНР	414
42.	<i>Нусратулло ЖУМАХУЖА.</i> "НАВОЙИ" ТАХАЛЛУСИ ИМЛОСИ ВА БАДИИЙ МАЪНО МИҚЁСЛАРИ	421
43.	<i>Алексей ПЫЛЕВ.</i> К ВОПРОСУ ОБ ОСМАНСКО-ТУРЕЦКИХ МОТИВАХ В РУССКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ (А.С.ПУШКИН И М.Ю.ЛЕРМОНТОВ)	438
44.	<i>Санобар ТЎЛАГАНОВА.</i> МИЛЛИЙ МАФКУРА ВА НАВОЙИЙ ИЖОДИ	447
45.	<i>Saodat MUHAMEDOVA, Roza QURBONOVA.</i> ALISHER NAVOIYNING XORIJ TILLARIGA TARJIMASI VA TADQIQI	454

Hayot LATIPOV,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
(BuxDU, O'zbekiston)

Nasiba NOROVA,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
(BuxDU dotsenti, O'zbekiston)

NAVOIY VA PUSHKIN: BADIY G'OYA VA OBRAZ

Annotatsiya. Ushbu maqola Sharq va G'arb adabiyotining daho shoirlari hazrat Alisher Navoiy va Aleksandr Sergeevich Pushkin ijodining mushtarak jihatlarini talqini, obrazlar olami, mavzu va g'oya jihatdan yakranglik, badiiy mahoratning o'ziga xosligi kabi masalalar yoritilgan.

Kalit so'zlar: mushtarak g'oya, millat, irq, din, mazhab, ishq, oshiq, ma'shuq, alloma, avliyo, daho, orif, barkamol inson, komil fazilat, Sharq, G'arb.

Abstract. This article covers issues such as the interpretation of the common aspects of the work of Alisher Navoi and Alexander Sergeevich Pushkin, the genius poets of Eastern and Western literature, the world of images, the similarity of themes and ideas, and the uniqueness of artistic skills.

Key words: common idea, nation, race, religion, sect, love, lover, scholar, saint, genius, scholar, perfect person, perfect virtue, East, West.

Dunyo adabiyotida sarhad, davlat, millat, din va mazhab farqlamaydigan "Ishq", "Muhabbat" atalmish ilohiy tuyg'ular hamda ushbu o'tli tuyg'ular otashkadasida pishgan "Oshiq", "Ma'shuq" kabi barkamol obrazlar uzoq davrlardan buyon ma'lum va mashhurdir. Ishq – ko'ngil berish, jondan sevish. Mutasavvufklar istilohida esa, Haqning zuhuriga sabab bo'ladigan dastlabki sifat ya'ni, xatti-harakatlar va alomatlar majmui bo'lsa, Muhabbat – sevgi, mehr, yaqinlik va sadoqat hissi. Ishqning martabalaridan biri, ya'ni yomon odat va fe'llardan poklanib, yaxshi hamda go'zal xulqlar ila sevgiliga yaqinlashmoq, unga loyqlik. [4, 275–276] Sharq allomalarining bu kabi ishq va muhabbatga bergan yuksak e'tiroflari butun olam, jumladan, G'arb mamlakatlari ijodkorlari e'tiborini ham o'ziga qaratgan desak, – xato bo'lmas.

Ayniqsa, rus mumtoz adabiyotining buyuk shoiri – Aleksandr Sergeevich Pushkin ijodiyotida ham Sharq olami – qadriyati, ma'naviyati va adabiyotiga talpinish tuyg'ulari yaqqol ko'zga tashlanadi.

di. Uning qalamiga mansub quyidagi kabi satrlar ushbu mulohazamizni asoslaydi:

*...Sharqning son-sanoqsiz davlatlarini
Bag'ishlamas senga bu tumor hech ham,
Hamda payg'ambarning ummatlarini
Bosh egdirib senga qilmaydi qaram;
Hamda seni g'amgin bu uzoq yurtidan
Do'stlar og'ushiga, vatanga, dildor, –
Shimol sari, ona yurtga janubdan
Uchirib yetkizmas men bergan tumor...
Va lekin makrli, hiylakor nigoh
Maftun etib quysa sani daf'atan,
Yo zulmat kechada dudoqlar nogoh,
Sevmasdan bo'salar olsa labingdan,
Aziz do'st, o'shanday bir jinoyatdan
Yurakka yangitdan qo'ymay dard, g'ubor.
Xiyonat, unutish kabi holatdan
Saqlab qolar seni men bergan tumor". [3, 34]*

Ushbu satrlar shoirning "Tumor" sarlavhali she'rini ikkinchi va uchinchi bandlariga tegishlidir. Ularda shoir birinchidan, Sharq xalqlarining sof go'zallik, chin muhabbat masalsidagi beg'ubor his-tuyg'ular ifodasiga e'tiborini qaratgan bo'lsa, ikkinchidan musulmon dini e'tiqodidagi kishilar ma'naviy olami, ruhiy kamolot yo'liga va ularning azizlarga – do'st-u yorga bo'lgan sidq-u sadoqatli munosabatlariga uni oshifta bo'lganini ifoda etmoqda. Mana shu oshif-talik zavqi baxsh etgan ilhom bilan kashf etilgan Pushkinning aksariyat she'rlarida sharqona ruhiyat ustuvorlik qiladi. Shu sababdan bo'lsa kerak shoir she'rlari mavzu, mazmun va mohiyatan mumtoz allomalarimiz, xususan, hazrat Alisher Navoiy asarlari bilan hamohangdir. E'tibor qaratgan bo'lsangiz, biz Navoiyning barcha asarlarini nazarda tutmoqdamiz, ya'ni faqat she'riyati muqoyasalari bilan cheklanmay ayrim nasriy asarlariga ham e'tibor qaratmoqqa ehtiyoj sezdik. Buyuk allomalarga bo'lgan yuksak ehtirom natijasida yaralgan shoirning "Nasoyim ul-muhabbat" asarida donishmandlar – orif zotlar ta'rifida mutasavvuf allomalar tilidan keltirilgan yuksak e'tiroflar, Pushkinning hikmatomuz satrlarda daholarning bar-

kamol sifatlari – mohiyatbinligi, nurli nigoh sohibi ekanligiga ishorat etuvchi ta’rif va tavsiflar bilan deyarli yangragandir. Chunonchi, Sharqda mohiyatan komil insonlar – “orif”lar deb atalsa, G’arbda bunday buyuk avliyolar – “Daho”lar deya ulug’langan. Avvalo, “Nasoyim ul-muhabbat”da keltirilgan Sharq allomalarining oriflar ma’rifati kamoli ta’rifida aytgan e’tiroflariga e’tibor qaratamiz:

Abu Nasr Sarrojga ko’ra: “Mo’min bilan orifning orasidagi farq shundaydir: mo’min olamga Alloh nuri bilan boqadi, orif esa Allohning o’zi ila nazar tashlaydi. Mo’minning qalbi bordir. Orifniki yo’q. Mo’minning ko’ngli zikri ilohiy ila orom oladi, orif esa Allohdan boshqa hech nimadan rohatlanmaydi”. Xoliy Nisoburiy “Orif uldurki, har ne yetkurgaylar toza, ul muridlarig’a yetkurgay toza”, – degan ekan. Faridun Qunyaviy Ma’ruf bi-Zarkub “Orif uldurki, sening sirringdin so’z aytqay va sen xomush bo’lg’aysen...”, – deya javob qilgan ekan. [4, 333] Shayx Ro’zbehon Abu Nasr Baqliy esa oriflar ma’naviy kamolining nechog’li yuksak darajaga yetishi ularning ko’ngul ko’zlari qanchalik ravshan ko’ra olishiga bog’liq bo’lishidan bizni xabardor etib, “Oriflar samo’i majmuida ko’ngullar tarhi uchun uch nimaga muhtojdurlar: ravoyihi tayyiba (tavba latofati va xushbo’yli) va vajhi sabih (sabab yoki yo’l go’zalligi) va savti malih (hol va kayfiyat chiroyi). Va mashoyixdan bu qavldin ijtinob buyurubdurlar. Nevchunkim, bu ish bir orifga musallamdurki, ko’ngli pokligi kamolga yetmish bo’lg’ay va ko’zi Haq subhonu taolodan g’ayrini ko’rmakdin yopilmish bo’lg’ay”, – demishdir. [4, 179–180]

Endi esa, Pushkinning daholar ta’rifida bitgan satrlarini qiyosan keltiramiz: “Daho bir nazar tashlashdayoq haqiqatni kashf etadi” (177), yoxud “Buyuk allomaning fikriga ergashish eng maroqli ilmdir” (176). “Ajdodlarga hurmatsizlik axloqsizlikning birinchi belgisidir” (176), “Hech qachon haqoratga haqorat bilan javob qaytarma” (177). Ko’rib-kuzatib borayotirmiz-ki, Allohning chinakam komil bandalari – alloma, daho, avliyo va oriflariga xos yuksak ilohiy fazilatlar hamda ularga bo’lgan sidq-u sadoqat to’la ishonch har ikkala shoir xulosalarida deyarli yakrang ifoda etiladi. Bu kabi yakrang g’oyalari ifodasi Pushkin va Navoiy ijodining asosiy mazmun-mohiyatini tashkil etadi.

Ma’lumki, Navoiy asarlarining tayanch ma’naviy manbasi avva-

lo, “Qur’on” va “Hadis”lar bo’lsa, yana biri ular qatorida e’zozlangan murshidi pirlar, tariqat asoschilari, avliyolar, orif zotlar kashf etgan hikmatomuz misralardir. Bunday misralarda insonni axloqi, tarbiyasi va muomalasiga salbiy ta’sir etuvchi kuch nafsi bad ekani, u o’z vaqtida jilovlanmasa, insoniyatni jaholat va zulmat sari yetaklashi, oqibatda har qanday jamiyat kishilari bir-birlariga hamiyatsiz, zulmkor bo’lishlaridan ogohlantiradi. Bu kabi bashoratlar shoir ijodining ham bosh mavzusi bo’lgan desak Xato bo’lmas:

To hirsu havas xirmanı barbod o’lmas:

To nafsu havo qasrı baraftod o’lmas.

To zulmu sitam jonig’a bedod o’lmas,

El shod o’lmas, mamlakat obod o’lmas. [1, 259]

Yana Pushkinning hikmatli so’zlaridan o’qiyimiz:

“Baxtsizlikni yaxshi maktab deydilar, balki shundaydir. Lekin eng yaxshi dorilfunun baxtda mujassam. U ezgulik va go’zallikka qodir qalb tarbiyatini nihoyasiga yetkazadi” [3, 175].

Sharq adabiyotida bo’lganidek, Navoiy ijodida ham, g’am va alamparvarlik, yoxud, omad, sevinch va baxtdan baxtsizlik – g’am hamda alamning qadrini baland tutish odatiy va bardavom harakatga aylangan. Bunga sabab, mutassaviflar nazdida sevinch, omad va baxt insonni Aslidan – Allohdan uzoqlashtiruvchi; kibrli, hoyi havasga o’ch, maqtanchoq, bepisand, makkor, zulmkor bo’lishiga sababchi bo’lsa, g’am, alam, iztirob kabi baxtsiz kunlar esa ularda chinakam komil sifatlarini paydo etib, Yaratganga yanada yaqinlashtiradi. Hazrat Navoiy ijodida “Ko’ngil ichra g’am yo’qlig’i – asru g’amdur, Alam yoqlig’i – dag’i qatiq alamdur” kabi g’amparvarlikka da’vat etuvchi satrlarning bisyorligi ham har ikkala shoir ijodi g’oyalarining umumiy jihatlaridan biridir. Chunki, bunday da’vatlar Pushkin asarlarida ham keng o’rin eallaydi. Quyida keltiriladigan satrlar shundan dalolat beradi:

Muborakdir zahmat, tashvishli kun ham,

Muborakdir zulmat yopingan tun ham. [3, 167]

Yoki:

O’z vaqtida ulg’aygan baxtli,

Yoshlikda yosh bo’lgan baxtlidir,

*Chidab hayot zahriga asli,
Bardoshi tosh bo'lgan baxtlidir.* [3, 170]

Bu kabi satrlar muqoyasasi va kuzatishlardan shunday xulosa qilamizki, Navoiyning katta-yu kichik asarlarida bo'lganidek, Pushkin ijodida ham daholarni zahmatli, g'am-u tashvishlarga boy kunlar tarbiyalab kamol toptiradi, degan ilg'or g'oyalar baland ruhiyatda ifoda etilgandir.

Yana shuni alohida e'tibor va e'zoz bilan tilga olish kerakki, Alisher Navoiyda bo'lgan komil muhabbat – millati, irqi, dini va mazhabidan qat'iy nazar bani insoniyatga teng bo'lgan samimiy munosabat masalasi Pushkin she'riyatida ham mujassamdir. Hazrat Navoiy barcha olam ahlini Mohiyatdan nishona deb, quyidagicha e'zozlasa:

*Onda teng ko'r gumrahu ogohni,
Dayr kuyi birla Baytullohni.
Birdurur gar Ka'ba birla butkada,
Bo'lsalar ma'mur yo otashzada.
Kufr ila dinga chu teng miqdordur,
Munda ish solikka bas dushvordur.* [161–162]

Pushkin ham she'rlarida olam ahlini mohiyatan bir-biriga teng deb biladi va barcha-barchani insoniyatga teng samimiy munosabatda bo'lishga da'vat etadi:

*Muhabbatga yoshu qari – teng
O, insonlar! Hammangiz azal
O'xsharkansiz Momo Havoga.* [3, 170]

Tan olish kerakki, Pushkin she'rlaridagi har bir detal obraz darajasiga ko'tariladi. Ayniqsa, sharqona ruhiyat, timsollar shoir Sharq va G'arb an'analari mohirona sintez qila olganligida yaqqol ko'rinadi. Uning Cho'lpon tarjima qilgan "Bulbul va gul" she'riga e'tibor qarataylik:

*Bahor chog'ida xoli bir bog 'da bir zulmatli tun erdi,
G'arib bulbul fig'on aylab, "Gulim rahm aylagil", derdi.* [1, 12]

Chindan ham, o'zbek xalq og'zaki ijodi va mumtoz adabiyotida bog', gul va bulbul timsollari ba'zida muhabbat ishg'ol etgan qalb egasi – oshiq va ma'shuqni tamsil etsa, ko'p hollarda ma'rifat maskani, yoxud, ma'rifat ahlining fayzbaxsh qalbi, piri komil va tolibi

ilmga ishorat qiladi. Bahor fasli – inson umrining navqiron yoshligini, zulmatli tun esa, yoshlik chogʻida – el koriga yaraydigan onida uning uchun yuborilgan va uni komillik sari toblay boradigan ilohiy sinovlarni – mushkulotlar, tashvishlar, gʻam va alamlarni anglatadi. Ayni satrlarda ham shu kabi nozik maʼnolar ifodasiga asosiy eʼtibor qaratilmoqda. Taʼkidlash joizki, Alisher Navoiy ijodida ham “Ne navo soz aylagay bulbul gulistondin judo” kabi ramziy-ishoraviy ifodalarga boy satrlar benihoya koʻp uchraydi.

Choʻlponning ushbu mukammal tarjimasiga yana eʼtibor qaratilgan. Mazkur sheʼr gʻazal shakli (hazaji musammani solim)da tarjima qilingan. Biror oʻrinda vaznda noqulaylik koʻzga tashlanmaydi. Gʻazal qitʼa shaklida qofiyalangan. Bahor mehr-muhabbat fasli, ayni damda insonni maʼrifat oladigan navqiron yoshlik oni. Bu faslda gʻarib bulbul tunga – mashaqqatlarga yolvorib, “gulning rahm aylashidan umidvor”, yaʼni ilm tolibi har qanday azob-uqubatlarga qaramay ilm– maʼrifat sohibining marhamatiga ilhaq. Biroq gul bu faryod-u nolalarga quloq solmagani uchun – maʼrifat sohibi tolibning talablarini befarq qoldirayotganligi uchun, bulbul toʻlgʻona-toʻlgʻona nola qilmoqda – tolibi ilm oʻzini qayta-qayta maʼrifat sohibi oyogʻi ostiga tashlamoqda.

Zulmat tuni istiorasi, gʻarib bulbul sifatlashi, faryod, afgʻon, nola soʻzlarining tanosib badiiy sanʼatini yuzaga keltirishi baytlarning poetik taʼsirchanligini oshirgan. Bulbulning gul oldidagi gʻaribligi unga chin oshiqligida – ilm tolibining maʼrifat sohibidan ilm olishga chin dildan kirishganligida namoyon boʻlgan.

Xulosa sifatida ayta olamizki, Alisher Navoiy asarlarida ham ayni nozik maʼnolarning ishoraviy ifodalari turli oʻrinlarda xilma-xil koʻrinishlarda takror va takror koʻzga tashlanaveradi. Bizningcha, ushbu ajib holat ham Navoiy va Pushkin ijodi mushtarak jihatlarning yana birini yaqqol namoyon qiladi.

Adabiyotlar

1. Navoiy Alisher. MAT. 20 tomlik, 14-tom. – Toshkent: Fan, 1998. – B. 179, 180, 200, 259, 333.
2. Navoiy A. Lison ut-tayr. Ilmiy-tanqidiy matn. – Toshkent: Fan, 1965. – B. 161–162.
3. Pushkin A.S. Esimdadir ajib dam hali. (To‘plovchi, so‘zboshi va izohlar muallifi E.Ochilov.) – T.: Cho‘lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2008. – B. 32, 39, 167, 170, 175, 176, 177.
4. Sayid Ja‘far Sajjodiy. Mustalahoti urafo va mutasavvuf. – Tehron: Hijr. 1339. – B. 275–276.
5. Djurakulov U. “Khamsa” as a Universal Genri // The First Transboundary Conference for Sustainable Societies – 2023 / Pamir 2023.
6. Жўракулов У. (2023). “Илми балоғат”нинг маншаъи. SHARQ-U G‘ARB RENESSANS ADABIYOTI: NAVOIY VA SHEKSPIR mavzuidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari, 1(1). Извлечено от <http://universal-adabiyotshunoslik.tsuull.uz/index.php/conference/article/view/2>.
7. Сирожиддинов Ш. УЧИНЧИ РЕНЕССАНС КОНЦЕПЦИЯСИНИНГ УНИВЕРСАЛ АСОСЛАРИ // SHARQ-U G‘ARB RENESSANS ADABIYOTI: NAVOIY VA SHEKSPIR mavzuidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari. – 2022. – Т. 1. – №1.
8. Sirojiddinov Sh. (2011). Alisher Navoiy. Manbalarning qiyosiy-tipologik, tekstologik tahlili. – T.: Akademnashr.
9. Abdushukurov B.B. Ethnonyms in the Works of Alisher Navoi. Proceedings of the 1st Pamir Transboundary Conference for Sustainable Societies September 16–17, 2023, in Virtual, India | VOL. 1 NO. 1 (2024): PAMIR ONE PREPRINTS.
10. Norova N., Nigina M. OMON MATJON SHE‘RLARIDA QUSHLAR TIMSOLI // ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ. – 2023. – Т. 13. – №3. – С. 27–30.
11. Nasiba N. UDC: 821.512. 133 TRADITION AND INNOVATION IN USMON KUCHKOR'S POEMS //SCIENTIFIC REPORTS OF BUKHARA STATE UNIVERSITY. – С. 100.
12. Yakubov I. (2013). Artistic text and aesthetic interpretation. 13; Yakubov I. (2011). Spiritual foundations of the Uzbek novel. Star of the East. – T in Tashkent, 4.